

**MEHROBDAN CHAYON DAGI RA'NO VA "CHOLIQUISHI" DAGI FERIDE
OBRAZLARINING TIPOLOGIK TALQINI**

Gulmirzayeva Shaxloxon Alisher qizi,

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU,

adabiyotshunoslik: jahon adabiyoti

shahlosatinova89@gmail.com +998996191012

Ilmiy rahbar: filologiya fanlari doktori, professor

Yakubov Islomjon Axmedjanovich

Annotatsiya. Ushbu maqolada Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" hamda Rashot Nuri Guntekinning "Choliquishi" romanlaridagi Ra'no va Feride obrazlari qiyosiy-tipologik yondashuv asosida tahlil etiladi. Asarlar yaratilgan tarixiy-ijtimoiy kontekst fonida "o'tish davri ayoli" fenomeni ochib beriladi. Ra'no va Feridening xarakter xususiyatlari, ruhiy olami, erkak qahramonlar (Anvar va Kamron) bilan munosabatlari, muhabbat, or-nomus va ichki erkinlikka munosabati solishtiriladi. Patriarxal jamiyat sharoitida ayolning ichki va tashqi erkinlikka intilishi, uning fojeaviy yoki nisbatan optimistik yakun topishi romanning kompozitsion va tasviriy yechimlari bilan bog'liq holda talqin qilinadi. Tadqiqot natijasida Ra'no va Feride obrazlari turkiy romanchilikda "yangi ayol" tipining ikki bosqichli badiiy modeli sifatida namoyon bo'lishi isbotlanadi.

Kalit so'zlar: Ra'no, Feride, "Mehrobdan chayon", "Choliquishi", yangi ayol obrazi, tipologik tahlil, patriarxal jamiyat, o'tish davri, o'zlikni anglash.

Keywords: Ra'no, Feride, "Mehrobdan chayon", "Çalıkuşu", new woman image, typological analysis, patriarchal society, transitional period, self-awareness.

XX asr boshlarida turkiy xalqlar adabiyotida ijtimoiy ongning yangilanishi, milliy uyg'onish, ma'rifatparvarlik va jadidchilik jarayonlari bilan bog'liq holda "yangi ayol" obrazining shakllanishi dolzarb adabiy-estetik masalalardan biriga aylandi. Ayolning jamiyatdagi mavqeini qayta ko'rib chiqish, uni nafaqat oilaviy, balki ma'naviy-intellektual hayot sub'ekti sifatida tasvirlash zarurati romanchilikda ham o'z ifodasini topdi. Mazkur jarayon doirasida Abdulla Qodiriyning "Mehrobdan chayon" romani hamda Rashot Nuri Guntekinning "Choliquishi" romani alohida ilmiy qiziqish uyg'otadigan asarlar sirasiga kiradi.

Ushbu ikki asarda markaziy obrazlar – Ra'no va Feride – turli tarixiy-madaniy makonga mansub bo'lishiga qaramay, o'z mohiyatiga ko'ra "o'tish davri ayoli"ning badiiy modellari sifatida namoyon bo'ladi. Ular nafaqat shaxsiy muhabbat, balki izzat-nafs, or-nomus, ma'naviy poklik, erkinlikka intilish kabi kategoriyalar bilan chambarchas bog'langan holda tasvirlanadi. Shu ma'noda Ra'no va Feride obrazlarini

qiyosiy-tipologik tahlil qilish turkiy romanchilikda ayol timsolining evolyutsiyasini yoritish uchun muhim imkoniyat yaratadi.

Maqolaning tadqiqot obyekti – “Mehrobdan chayon”dagi Ra’no va “Choliqushi”dagi Feride obrazlari, predmeti esa mazkur obrazlarning xarakter, ruhiyat, syujetdagi funksiyasi, patriarxal muhit bilan munosabati va erkak qahramonlar bilan aloqadorlik jihatidan tipologik o’xshash va farqli tomonlarini aniqlashdan iborat. Maqolaning maqsadi – Ra’no va Feride timsolida “yangi ayol” tipining ikki tarixiy-badiiy ko’rinishini ilmiy asosda talqin etishdir.

“Mehrobdan chayon” Abdulla Qodiriy ijodining yuksak bosqichida yaratilgan tarixiy-ijtimoiy roman bo’lib, unda Qo’qon xonligi davri, xususan, Xudoyorxon hukmronligi, saroy hayoti, mansabparast ulamolar riyosi, xalqning ijtimoiy-siyosiy ezilishi badiiy tasvir markaziga chiqariladi. Asar garchi o’tmish voqealari asosida qurilgan bo’lsa-da, undagi konfliktlar va muammolar yozuvchi yashagan davr – jadidlar kurash olib borgan mustamlakachilik sharoiti bilan uzviy bog’liq ekanligi bilan ahamiyatlidir.

Rashot Nuri Guntekinning “Choliqushi” romani esa Usmonli imperiyasining inqirozga yuz tutgan, Birinchi jahon urushi arafasi va undan keyingi yillarda yangi turk jamiyati shakllanayotgan murakkab tarixiy vaziyat fonida yozilgan. Bu asar Feride taqdiri orqali eski an’analari va yangi ma’rifat g’oyalari to’qnashuvi, ayolning ta’lim olishi, kasb egallashi, ijtimoiy faol sub’ekt sifatida jamiyatga kirib borish jarayonini yoritadi.

Demak, har ikki roman o’tish davri mahsuli sifatida e’tirof etiladi: birida feodal xonlik tuzumi yemirilishi va mustamlakachilikka xos ijtimoiy adolatsizlik, ikkinchisida esa imperiya inqirozi va modern turk davlatchiligi sari og’riqli o’tish jarayoni badiiy aks etadi. Shuning uchun ham Ra’no va Feride obrazlarini tipologik jihatdan aynan “o’tish davri ayoli” sifatida ko’rib chiqish ilmiy asosli yondashuv hisoblanadi.

Ra’no obrazi Solih maxdum oilasida tarbiya topgan, odob-axloqi joyida, hayo-hijobli, kamtar, shu bilan birga ichki dunyosi boy, mustaqil fikrlashga moyil sharq qizining badiiy modeli sifatida yaratilgan. U an’anaviy sharqona tarbiya olgan bo’lsa-da, mutlaq bo’ysunuvchan, iroda va pozitsiyadan mahrum “itoatkor ayol” qolipidan keskin farqlanadi. Ra’no uchun muhabbat – faqat hissiy kechinma emas, balki ma’naviy mezon, axloqiy tanlovdir. Anvarni sevishining ildizida uning ma’rifatli, vijdonli, adolatparvar inson sifatida qabul qilinishi yotadi. Shu jihatdan Ra’no o’z muhabbati orqali ichki “men”ini anglaydigan, o’z orzu-intilishlarini belgilaydigan shaxs darajasiga ko’tariladi.

Feride esa tashqi ko’rinishi, xatti-harakati, dunyoqarashi bilan Ra’nodan keskin farq qiladi. U sho’x, dadil, erkin tabiatli, “Choliqushi” laqabini ham aynan o’zining quvnoqligi va chaqqonligi sabab olgan qizdir. Yetimlik tajribasi unga erta mustaqil

bo‘lishni “o‘rgatgan”; u an’anaviy “uy qizi” qolipiga sig‘maydi. Feride maktabda erkaklar bilan baravar o‘qiydi, keyinchalik viloyatlarga o‘qituvchi sifatida jo‘natiladi, turli ijtimoiy-madaniy muhitlarga kirib boradi, mahalliy amaldorlar va qadimcha qarash egalari bilan bahsga kirishishdan cho‘chimaydi.

Tipologik yondashuv nuqtai nazaridan, Ra‘no va Feride “yangi ayol” tipining ikki bosqichini ifodalaydi. Ra‘no – ichki dunyosida yangilangan, ammo tashqi ijtimoiy-siyosiy imkoniyatlar bilan jiddiy cheklangan ayol; Feride esa ichki erkinlikni tashqi ijtimoiy faollik, kasbiy mustaqillik bilan birlashtirishga muvaffaq bo‘lgan ayol timsolidir. Ra‘noning ideali ko‘proq muhabbat va oila atrofida shakllansa, Feride idealida sevgi bilan bir qatorda ta‘lim, mehnat, jamiyatga xizmat qilish ham muhim o‘rin tutadi.

Ra‘noning xarakteri sokinlik, mulohazakorlik, sabr-bardosh, ichki mustahkamlik kabi sifatlar bilan tavsiflanadi. U hissiyotlarini oshkora namoyon qilmaydi, ko‘pincha ich-ichidan iztirob chekadi, ammo ma‘naviy mezonlaridan hech voz kechmaydi. Ra‘no uchun eng muhim qadriyatlar – pok muhabbat, vafodorlik, izzat-nafsga sodiqlikdir. Uning fojeasi shundaki, xarakteridagi sobitlik va vafodorlik mavjud ijtimoiy-siyosiy sharoitda baxtga emas, aksincha fojiali yakunga olib keladi.

Feridening xarakterida esa dinamizm, keskinlik, o‘z-o‘zini tahlil qilishga moyillik ustunlik qiladi. U ko‘p hollarda qarorlarni tez, hissiyotlarga tayanib qabul qiladi, keyinchalik esa ularni chuqur ruhiy kechinmalar orqali qayta ko‘rib chiqadi. Kamronning ehtimoliy xiyonati haqidagi xabarni eshitgach, to‘y arafasida hammasini tark etib ketishi – uning or-nomus masalasida mutlaq murosasizligini, erkinlikni hamma narsadan ustun qo‘yishini ko‘rsatadi. Feride kundalik yozish jarayonida o‘zini o‘zi tanqid qiladi, o‘z hissiyotlarini “tahlil obyekti”ga aylantiradi.

Shu nuqtai nazardan, Ra‘no – ichki iztiroblarini yashirin asraydigan, hissiyotini jilovlovchi “ichkariga yo‘naltirilgan” ayol ruhiyati, Feride esa ichki kechinmalarini bevosita nutq va xatti-harakatda namoyon qiladigan, o‘z ruhiyati ustida faol “ishlov beradigan” ayol tipidir. Bu ruhiy farqlar obrazlarning tipologik ko‘rinishini yanada aniqlashtiradi.

Ra‘noning Anvar bilan munosabatlari an’anaviy sharqona muhabbat modeli bilan uyg‘un bo‘lsa-da, unda shaxsiy-axloqiy mezonlarning kuchli ekani seziladi. Ra‘no Anvarni faqatgina shaxsiy baxt manbai sifatida emas, balki adolat va haqiqat timsoli sifatida ham ko‘radi. Anvarning ma‘rifatparvar, vijdonli, zulmga befarq bo‘lmagan shaxs ekanligi Ra‘no muhabbatining ma‘naviy asosini tashkil etadi. Shu bois Ra‘no uchun Anvar – “sevikli inson” bilan bir qatorda, ma‘naviy ideal sifatida ham qadrlidir.

Feridening Kamron bilan munosabatlari esa yanada murakkab, ziddiyatli va dramatik tusga ega. Kamron dastlab deyarli “ideal yigit” bo‘lib ko‘rinadi. Ammo xiyonat haqidagi xabar Feridening hayotiy qarashlarini keskin o‘zgartirib yuboradi.

Feride muhabbat va izzat masalasida hech qanday murosani qabul qilmaydi; Kamronni oqlash imkonini bermay, uni jazolashning eng keskin shakli – tark etish yo‘lini tanlaydi. Bu holat Feridening muhabbati ham axloqiy mezon bilan bog‘liq ekanini ko‘rsatadi: u uchun sevgi vafodorlik va ishonch bilan uzviy munosabatda bo‘lishi kerak.

Tipologik xulosa sifatida ta’kidlash mumkinki, har ikki obraz erkak qahramonga “ko‘r-ko‘rona” muhabbat bilan bog‘lanmaydi. Ra’no Anvarni axloqiy mezonlar asosida sevadi va unga sodiqligini aynan shu mezonlar bilan asoslaydi; Feride esa Kamronni xiyonat orqali “sinovdan o‘tkazadi” va bu sinovdan o‘tolmagan sevgiga rad javobi beradi. Ra’no muhabbat yo‘lida o‘zini qurbon qiluvchi, Feride esa muhabbat, izzat va shaxsiy erkinlik o‘rtasida muvozanat izlovchi ayol tipi sifatida namoyon bo‘ladi.

“Mehrobdan chayon”dagi ijtimoiy muhit qat’iy patriarxal tuzum, feodal xonlik qonun-qoidalari bilan belgilangan. Xudoyorxon harami, ko‘p xotinlilik, ayolning mulk sifatida idrok etilishi, ulamolarning riyo va ikkiyuzlamachiligi – bularning barchasi ayol erkinligi uchun amalda hech qanday imkoniyat yo‘qligini ko‘rsatadi. Ra’no ana shunday sharoitda yashaydi. Uning ochiqchasiga isyon ko‘tara olmasligi tabiiy: tuzumning tashqi bosimi nihoyatda kuchli. Shu bois Ra’no kurashi ruhiy-ma’naviy sathda kechadi; u nafratlangan qarorlarni ich-ichidan rad etadi, sevmagan odamga turmushga chiqishni istamaydi, ammo bu qarshilikni amaliy harakatga aylantira olmaydi. Natijada uning ichki erkinlikka intilishi fojeali yakun bilan tugaydi.

“Choliqushi”dagi muhit ham patriarxal bo‘lishiga qaramay, unda modernizatsiya, ta’lim, yangi jamiyat qurish intilishlari ancha sezilarli. Qizlarning maktabda o‘qishi, ayollar uchun o‘qituvchilik kasbining ochilishi, davlat miqyosida islohotlarga urinishlar – ayol erkinligi uchun ma’lum darajada real maydon yuzaga kelayotganini bildiradi. Feride ana shu sharoitda nafaqat ichki ruhiy, balki tashqi ijtimoiy erkinlik uchun ham kurashadi: u o‘zi xohlamagan turmush qurish takliflarini qat’iy rad etadi, qishloq muhitidagi mansabdorlarning nohaqligiga qarshi chiqadi, o‘qituvchilik faoliyatini sha’n va g‘urur bilan ado etadi.

Shunday qilib, Ra’no – patriarxal tuzumning eng qattiq shaklida yashab, faqat ichki erkinlikni saqlab qolishga intilgan, ammo shu yo‘lning o‘zi ham fojeaga olib borgan ayol; Feride esa patriarxat yemirila boshlagan, modern huquqiy va ma’rifiy asoslar shakllanayotgan jamiyatda yashab, ichki erkinlikni tashqi faollik bilan uyg‘unlashtirish imkoniga ega bo‘lgan ayol sifatida ko‘rinadi. Mazkur tipologik farq yozuvchilar tarixiy optimizmi darajasini ham bilvosita aks ettiradi.

Ra’no obrazi asosan uchinchi shaxsli rivoya orqali, muallif nutqi va boshqa qahramonlar munosabati vositasida yoritiladi. Qodiriy Ra’noning tashqi qiyofasi, muomalasi, oila davrasidagi xulq-atvorini tasvirlash orqali uning ichki dunyosiga kirib boradi. Ra’noning uzun nutqlari deyarli uchramaydi; aksincha, uning sukuti, ko‘z

yoshi, mayda-bichik xatti-harakatlaridagi nozik detallarda ruhiy kechinmalar ifodasini ko‘ramiz. Natijada Ra‘no ko‘proq jamiyatdagi voqealar girdobida qolgan, biroq ana shu voqealar ma‘naviy mohiyatini o‘z taqdirida ayniqsa og‘riqli his qiladigan qahramon sifatida gavdalanadi.

Feride obrazi esa kompozitsion jihatdan tamoman boshqa usulda taqdim etiladi. Roman matnining asosiy qismini Feridening o‘zi yozgan kundaliklar tashkil etadi. Bu esa o‘quvchiga qahramonning ichki monologi, kechinmalari, kayfiyat o‘zgarishlarini bevosita idrok etish imkoniyatini beradi. Feride bir vaqtning o‘zida ham syujet markazida turgan obraz, ham hikoya qiluvchi sub‘ekt sifatida namoyon bo‘ladi. Shu sababli uning shaxsiy ovozi, bahosi, o‘z-o‘zini tahlil qilish uslubi juda ravshan eshitiladi.

Kompozitsion yechimdagi bunday farq obrazlarning tipologik qiyofasini ham shakllantiradi. Ra‘no ma‘lum ma‘noda “boshqalar nigohidagi ayol”, ya‘ni ko‘proq ob‘ekt sifatida tasvirlangan bo‘lsa, Feride “o‘z hayotining hikoyachisi” sifatida sub‘ekt maqomiga ko‘tariladi. Biroq har ikki holatda ham mualliflar qahramonlarining soddaligi, ma‘naviy pokligi, samimiyligini jonli detallar yordamida ochib beradilar: Ra‘noning otasiga bo‘lgan hurmati, uy ishlaridagi tirishqoqligi, Anvar bilan bog‘liq har bir xabarni intizorlik bilan kutishi; Feridening bolalar bilan iliq munosabati, og‘ir sharoitda ham hazil-mutoyibadan voz kechmasligi, ba‘zan bolalarcha jahldorligi shular jumlasidandir.

Yuqoridagi tahlillar shuni ko‘rsatadiki, “Mehrobdan chayon”dagi Ra‘no va “Choliqushi”dagi Feride obrazlari turkiy romanchilikda “yangi ayol” tipining ikki muhim tarixiy-badiiy modelini ifodalaydi. Ularni qiyosiy-tipologik nuqtai nazardan umumlashtirar ekanmiz, quyidagi xulosalarga kelish mumkin:

1. Tipologik umumiyliklar:

- Har ikki obraz ham o‘z davri ijtimoiy-madaniy sharoitiga nisbatan ma‘naviy jihatdan yuksak, or-nomusini har narsadan ustun qo‘yadigan, muhabbatni axloqiy mezonlar bilan bog‘lab talqin etadigan ayol timsolidir
- Ra‘no ham, Feride ham patriarxal jamiyat bosimi ostida yashashlariga qaramay, ichki erkinlikka intiladilar, majburiy qaror va zo‘ravon an‘analarni ruhiy jihatdan inkor etadilar.
- Erkak qahramonlar bilan munosabatlarida ular “ko‘r-ko‘rona” bo‘ysunmay, balki ma‘naviy-axloqiy baho asosida qaror qabul qiladilar.

2. Tipologik farqlar:

- Ra‘no feodal xonlik tuzumining eng keskin patriarxal sharoitida yashaganligi bois, uning kurashi asosan ichki-ma‘naviy sathda kechadi va fojeali yakun topadi; Feride esa modernlashayotgan turk jamiyatida ma‘lum huquqiy va ma‘rifiy imkoniyatlarga ega bo‘lgan holda, ichki erkinlikni tashqi ijtimoiy faollik bilan uyg‘unlashtirishga muvaffaq bo‘ladi

– Ra’no obrazini, asosan, muallif va boshqa qahramonlar nigohi belgilasa, Feride o‘z kundaligini yozuvchi, voqealarni o‘zi talqin qiluvchi qahramon sifatida sub’ekt maqomida namoyon bo‘ladi.

– Ra’no muhabbat yo‘lida o‘zini qurbon qiluvchi fojeaviy ayol tipini, Feride esa muhabbat, or-nomus va shaxsiy erkinlik o‘rtasida muvozanat izlab, sinovlardan o‘tgan holda ma’lum darajada hayotiy murosaga erishuvchi ayol tipini ifodalaydi.

Mazkur tipologik talqin “Mehrobdan chayon” va “Choliqushi” romanlari o‘rtasidagi badiiy-mazmuniy yaqinliklarni ko‘rsatish bilan birga, turkiy adabiyotlarda ayol obrazining evolyutsiyasini, uning feodal-patriarxal tuzumdagi “qamalgan” holatdan modern jamiyatdagi nisbatan erkin, ijtimoiy faol sub’ekt darajasiga ko‘tarilish bosqichlarini ham yoritib beradi. Ra’no – fojea bilan tugagan bo‘lsa-da, ma’naviy poklik va vafodorlik timsoli; Feride esa ko‘p sinovlarga qaramay, ichki va tashqi erkinlikka intilishning yorqin badiiy timsoli sifatida adabiy jarayonda o‘ziga xos o‘rin egallaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Güntekin, R. N. (1992). Çalıkuşu. İstanbul: İnkılâp Kitabevi. (Original work published 1922).
2. Qodiriy, A. (2019). Mehrobdan chayon [Roman]. Toshkent: Yoshlar nashriyot uyi.
3. Quronov, D. (2018). Adabiyot nazariyasi asoslari [Darslik]. Toshkent: Akademnashr.
4. To‘rayeva, B., & Ko‘chimov, U. (2022). Adabiyotshunoslik [Darslik]. Toshkent: MALIK PRINT CO.